

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

tashqari, huquqiy nigilizmga barham berish, huquqiy ongni yuksaltirish, yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash targ‘ibotini kuchaytirish har qachongidan-da dolzarbdir.

Toshkent shahar yo‘llarida harakat xavfsizligini ta‘minlash uchun avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini va qulayligini oshirish, yo‘llarda insonlar o‘limi holatlarini keskin kamaytirish, yo‘l infratuzilmalarini takomillashtirish hamda yo‘l harakati ishtirokchilari uchun qulay sharoitlar yaratish va YTHni kamaytirishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llash hamda avtomobil yo‘llarida harakatni tashkil etishning ilg‘or usullarini tadbiq etish orqali harakat xavfsizligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Azizov K.X. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. T.: -Fan va texnologiya, 2009. – 244 b.
2. <https://kun.uz/ru/news/2025/01/24/v-uzbekistane-v-2024-godu-snizilos-kolichestvo-dtp>
3. <https://uz.wikipedia>
4. <https://kun.uz/news/2023/01/25/toshkentda-fuqarolarga-tegishli-avtomobillar-soni-yarim-milliondan-oshdi>

FARG‘ONA VODIYSIDA SODIR BO‘LGAN YO‘L TRANSPORT HODISALARNING YUZAGA KELISH SABABLARINI O‘RGANISH.

Tirkashev Sunnatjon Sobir o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti QIN-1-24 guruh talabasi

+998935549306

Jahonda yo‘l harakati xavfsizligini oshirishda yo‘l infratuzilmalarini takomillashtirishga, yo‘llarda harakat ishtirokchilari uchun xavfsiz va qulay harakat sharoitini ta‘minlashga, yo‘l harakatini tashkil qilish va boshqarishda intellektual tizimlardan keng foydalanishga, yo‘llarda inson o‘limi darajasini keskin kamaytirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra “...yo‘l-transport hodisalari (YTH)dan dunyo bo‘ylab har yili 1,19 million kishi, har kuni 3200 kishi yoki har daqiqada 2 kishi halok bo‘lmoqda, yiliga 50 million kishi (shundan 240 mingi bolalar) YTH oqibatida jarohatlanmoqda, ularning ko‘pchiligi umrbod nogiron bo‘lib qolmoqda”. Bu borada, jumladan yo‘llarda YTHning kelib chiqishiga yo‘l sharoiti ta‘sirini baholash, YTHni hisobga olishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash va hisobga olishning tezkor usullarini yaratish hamda YTHga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni baholash va modellashtirish asosida yo‘l harakati xavfsizligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.


“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Hozirgi kunda avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini oshirish, sodir bo‘layotgan yo‘l-transport hodislarini sonini va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish, yo‘l infratuzilmalarini takomillashtirish hamda yo‘l harakati ishtirokchilari uchun qulay sharoitlar yaratish kabi masalalar davlat darajasida e‘tibor qaratilayotgan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida har yili 10 mingdan ortiq yo‘l-transport hodisalari sodir bo‘ladi, shundan har yili 2,5 mingga yaqin kishi halok bo‘ladi va 10 mingga yaqin kishi turli hil darajadagi tan jarohatlari olishadi.

Farg‘ona, Namangan va Andijon viloyatlaridan tashkil topgan Farg‘ona vodiysi respublikaning qolgan mintaqalariga nisbatan hududi kichik, aholisi zich joylashgan, yo‘l tarmog‘ining zichligi katta, avtomobil yo‘llaridagi harakat miqdori yuqori hamda yo‘llarda sodir bo‘layotgan yo‘l-transport hodisalari soni ko‘p, avtomobil yo‘llarida harakatning xavfsizlik darajasi past bo‘lgan hudud hisoblanadi.

2022 yilda Respublika bo‘yicha 9902 ta (halok bo‘lganlar 2356, jarohat olganlar 9606) 2023 yilda 9843 ta (halok bo‘lganlar 2282, jarohat olganlar 9209) YTH sodir bo‘lgan bo‘lib, shundan 2022 yilda 3468 tasi ya‘ni 35 foizi, 2023 yilda 3057 tasi ya‘ni 31 foizi Farg‘ona vodiysi viloyatlariga to‘g‘ri keladi. Farg‘ona vodiysi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha “qizil” ya‘ni xavfli hududga kiradi. (1-rasm).




1-rasm. 2022 yil davomida respublika bo‘yicha sodir bo‘lgan YTHning hududlar kesimida taqsimlanishi

Transport oqimi tarkibida yengil avtomobillar foizining oshib borishi, oqim o‘rtacha tezligining oshishiga va natijada yo‘l sharoiti qoniqarsiz bo‘lgan hududlarda halokatlar sonining keskin ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. [Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Farg‘ona vodiysida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarining holati](#) va YTH tahlil qilindi.

Farg‘ona vodiysi bo‘yicha mavjud transport vositalarining umumiy soni 995821 ta bo‘lib, shundan yengil avtomobillar 86,4 %, yuk avtomobillari 11,4 %, maxsus avtomobillar 0,06 %, avtobuslar 0,84 % va mototransportlar 1,3 % ni tashkil qiladi. Yuqoridagi keltirilgan ma‘lumotlarga asosan Farg‘ona vodiysi bo‘yicha 1 km avtomobil yo‘liga to‘g‘ri keladigan


“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

transport vositalari (TV) soni 21,05 TV/km ni tashkil qilishi aniqlandi. Quyidagi rasmda Farg‘ona vodiysi viloyatlari bo‘yicha transport vositalarining taqsimlanishi va yo‘l tarmog‘i zichligi tahlil qilingan (2-rasm).



2-rasm. Farg‘ona vodiysi viloyatlari bo‘yicha transport vositalarining taqsimlanishi va yo‘l tarmog‘i zichligi tahlili


Bugungi kunda Farg‘ona vodiysi bo‘yicha 1 km yo‘lga to‘g‘ri keladigan YTH, halok bo‘lgan va jarohat olganlar soni tahlili quyidagi gistogrammada keltirilgan (3-rasm).



3-rasm. Farg‘ona vodiysi bo‘yicha 1 km yo‘lga to‘g‘ri keladigan YTH, halok bo‘lgan va jarohat olganlar soni gistogrammasi


Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona vodiysi bo‘yicha Farg‘ona viloyati 1 km avtomobil yo‘liga to‘g‘ri keladigan jami YTH, halok bo‘lgan va jarohat olganlar soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichni tashkil qiladi (3-rasm).

Oxirgi yillarda respublika bo‘yicha sodir bo‘lgan YTH, halok bo‘lgan va jarohat olganlar soni tahlil qilinganda Farg‘ona vodiysi viloyatlari yo‘ldagi harakat xavfsizligi bo‘yicha xavfli hududga kirishini quyidagi gistogrammada ko‘rish mumkin (4-rasm).



4-rasm. Respublika bo'yicha avtomobil yo'llarida sodir bo'lgan YTH, halok bo'lgan va jarohat olganlar soni gistogrammasi

Farg'ona vodiysi bo'yicha ham oxirgi 10 yillik YTH tahlil qilinganda asosan 5-tur “Piyodani urib yuborish” 44,9% va 1-tur “To'qnashuv” 31,2%, 6-tur “Velosipedchini urib yuborish” 11,5% kabi YTH turlari ko'p sodir bo'ladi [10]. YTH ni turlari bo'yicha Farg'ona vodiysida sodir bo'lishining tahlili quyidagi gistogrammada aks ettirilgan (5-rasm).



5-rasm. Farg'ona vodiysida YTH ni turlari bo'yicha taqsimlanishi

YTH ni kelib chiqishining sabablari tahlil qilinganda 14% da yo'lda ajratuvchi tasma to'siqlari yo'qligi, 10% da 2-guruh piyodalar to'siqlarini o'rnatilmaganligi, 9% da yo'llarni yoritilmaganligi, 4,1% da yo'l sharoitining qoniqarsizligi, 1% da veloyo'lakdalar tashkil etilmaganligi, 6% da svetofor yoki yo'l belgisi o'rnatilmaganligi, 3,3% da boshqa obyektiv sabablar, 14% da belgilangan tezlikka rioya qilinmaganligi, 3% da haydovchining tajribasizligi, 1% da svetofor yoki yo'l belgisiga rioya qilinmaganligi, 17% da piyodalarga yo'l bermaslik, 8% da quvib o'tish qoidasini buzish, 5% da oraliq masofani saqlamaslik va 5,5% da boshqa subyektiv sabablar bo'lgan.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Farg‘ona vodiysi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash uchun avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini va qulayligini oshirish, yo‘llarda insonlar o‘limi holatlarini keskin kamaytirish, yo‘l infratuzilmalarini takomillashtirish hamda yo‘l harakati ishtirokchilari uchun qulay sharoitlar yaratish va YTHni kamaytirishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llash hamda avtomobil yo‘llarida harakatni tashkil etishning ilg‘or usullarini tadbiq etish orqali harakat xavfsizligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dunyoda yo‘l-transport hodisalari qurbonlarining statistikasi: <https://parstoday.uz/news/world-i77540>. noyabr-20, 2022 12:37 Asia/Tashkent.
2. Musulmonov K.N. Shahar magistral ko‘chalarida yo‘l harakati xavfsizligini oshirish usullarini takomillashtirish. Avtoreferat dis. tex. fan. fal. dok.(PhD). – Toshkent: TDTrU, 2022. – 25 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati statistik ma’lumotlari: <https://daryo.uz/k/2024/02/28/ozbekistonda>.
4. O‘roqov A.X., Tashev D.V. Farg‘ona vodiysining avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligi sharoitini tadqiq qilish //Научно-технический журнал, ФерПИ / - Фергана, 2021. №1. –С. 14-19 bet.
5. Azizov Q.H. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. T. Yozuvchi. 2009. 244 b.

MAXMUD XO‘JA BEHBUDIY - JADIDCHILIKNING ICHKARISIDAGI TASHQI DUNYOLAR

Hoshimova Odina

*Andijon viloyati Andijon tumani Iqtisodiyot va pedagogika universiteti ingliz filologiyasi
yo‘nalishi 2- bosqich talabasi.*

Kosimova N.D.

*Ilmiy rahbar; Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
ijtimoiy – gumanitar fanlar kafedrasi ,p.f.n. dotsent*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek jadidchilik harakatining yetakchi vakillaridan biri – Maxmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifiy va siyosiy faoliyati, uning tashqi dunyo bilan aloqalari hamda bu aloqalarning jadidchilik harakatiga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar; Fotografiya va yangi texnologiyaga ochiqlik , taxallus, safar sabablari, ruxiy uyg‘onish , vasiyatnoma , ‘‘Padarkush’’ , adabiy g‘oyalar.